
To'lovlarni o'z vaqtida to'lang

Majburiy ijro byurosi Qo'shtepa tumani bo'limi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29-maydagi "Elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish hamda iste'mol qilish sohasida to'lov intizomini yanada mustahkamlash, shuningdek, ijro ishi yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida elektr energiyasidan debitor qarzdorligi ortgan Shahartepa, Fayz hamda Katta beshkapa mahalla fuqarolar yig'ini raislari, oqsoqollari va faollari ishtirokida yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ilishda elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun to'lovlarni to'liq undirilishini ta'minlash va qarzdorlikni qisqartirish yuzasidan o'zini o'zi boshqarish organlari rahbarlariga topshiriq va ko'rsatmalar berildi.

Hayotjon SULAYMONOV,

MIB Qo'shtepa tumani bo'limi boshlig'i

2019-12-16 18:39:37